

**ODIL YOQUBOVNING RETROSPEKTIVA YARATISH MAHORATI (“KO‘HNA DUNYO” ROMANI MISOLIDIDA).**

**Alliyarova Sarvinoz Shuxrat qizi**

*BuxDPI 1-bosqich talabasi*

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada Odil Yoqubovning ijodi haqida fikr yuritiladi. Adibning “Ko‘hna dunyo” asari g‘oyaviy-badiiy tahlil etiladi. Mazkur romandagi bosh obraz Abu Rayhon Beruniyning o‘y-hayollari asosida retrospektivlik hodisasi ochib beriladi.*

**Kalit so‘zlar:** *retrospektiva, tarixiy roman, xronotop, uslub, obraz, yozuvchi mahorati.*

**МАСТЕРСТВО ОДИЛЯ ЯКУБОВА В СОЗДАНИИ РЕТРОСПЕКТИВЫ (НА ПРИМЕРЕ РОМАНА «СТАРЫЙ МИР»).**

**Аннотация:** *В данной статье рассматривается творчество Одилы Якубова. Произведение автора «Старый мир» анализируется идеологически и художественно. Феномен ретроспективности раскрывается на основе мыслей и фантазий главного героя Абу Райхона Беруни в этом романе.*

**Ключевые слова:** *ретроспектива, исторический роман, хронотоп, стиль, образ, писательское мастерство.*

**ODIL YAKUBOV'S SKILL IN CREATING A RETROSPECTIVE (ON THE EXAMPLE OF THE NOVEL "OLD WORLD").**

**Abstract:** *This article discusses the work of Odil Yakubov. The author's work "Old World" is analyzed ideologically and artistically. The phenomenon of retrospectiveness is revealed based on the thoughts and fantasies of the main character Abu Rayhon Beruni in this novel.*

**Keywords:** *retrospective, historical novel, chronotope, style, image, writing skill.*

Taniqli o‘zbek yozuvchisi, dramaturg va o‘zbekiston xalq yozuvchisi Odil Yoqubov hozirgi Janubiy Qozag‘iston viloyatining Qarnoq qishlog‘ida tug‘ilgan. Adibning “Ulug‘bek xazinasi”, “Ko‘hna dunyo”, “Diyonat”, “Oq qushlar, oppoq qushlar” kabi asarlari kitobxonlar tomonidan sevib o‘qiladi. Ayniqsa uning “Ko‘hna dunyo” sarlavhali tarixiy romani o‘quvchilar ko‘nglidan bir umrga joy olgan desak yanglishmagan bo‘lamiz. Ushbu roman 1982-yilda yozilgan bo‘lib, asar mazkazida ikki buyuk mutafakkir Abu Rayhon Beruniy va Abu Ali ibn Sinoning hayoti va fojiali taqdirlari turadi. Yozuvchi bu

allomalarning hayotini retrospektivlik hodisasidan mohirona foydalangan holda ochib bergan.

Shu o‘rinda “retrospektiva” terminiga ta’rif berish o‘rinlidir. U ( lotincha “retro”, orqaga “specto” - qarayman) – badiiy asarda voqealar rivojini vaqtincha to‘xtatib, o‘tmishga bo‘lib o‘tgan voqealarga qaytish usulidir. Ya’ni mazkur hodisada o‘tmishga murojaat qilinadi, bo‘lib o‘tgan voqealar kitobxon ko‘z o‘ngida qayta jonlanadi.

Yozuvchining mahorati shundaki, u asarda retrospektiv hodisasini qo‘llash orqali o‘tmish va bugungi kun voqea-hodisalarini bir-biri bilan uyg‘unlashtira olgan. Muallif asarda mazkur usuldan foydalanishi roman voqealarining o‘quvchi uchun yanada tushunarli bo‘lishiga yordam bergan.

“Beruniy go‘yo yomon tush ko‘rib bosinqiragan odamday, yuragi gurs-gurs urib uyg‘onib ketdi. U anchagacha qayerga kelib qolganini anglay olmay yotdi, so‘ng ko‘zi shiftdagi do‘ppidekina tuynukka, g‘adur- budur devor tokchasiga miltirab turgan moychiroqqa tushdi, tushdi-yu yuragi orqasiga tortib ketdi.

Subhanollo! U tanish hibsonada, bundan o‘n uch yil muqaddam G‘aznaga kelgan, to‘g‘rirog‘i, majburan olib kelingan yili tushgan zindonda yotardi! Faqat unda bir o‘zi emas, yonida keksa ustod Abdusamad Avval ham bor edi” [1, 415]

Asarning shu qismiga kelganda o‘quvchida qiziqish ortadi. Negaki romanning kulminatsion nuqtasi shu voqedan boshlanadi, fikrimizcha.

Yozuvchi bu ijod namunasida retrospektivlikdan o‘rinli va mohirona foydalangan. Beruniy zax bosgan zindonda yotib hayol og‘ushiga cho‘markan xotira chiroqlarining lip-lip yonib o‘chishi bilan faqat o‘zigina o‘tmishga sayohat qilmagan, balki u o‘zi bilan birga o‘quvchini ham o‘tmish atalmish sehrlil olamga olib kira olgan. Sababi, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sinolar yashagan davr, ijtimoiy-siyosiy, maishiy hayot barchamizga qiziqdir. Tarixiy mavzuda yaratilgan ilmiy asarlar bilan bir qatorda badiiy ijod namunalari orqali biz vatan tarixini, bobolarimizning faoliyatlari va qilgan ezgu amallarini ham o‘rganamiz. Yurtimiz tarixini o‘rganish biz yoshlar uchun juda muhimdir. Zero, tarixiy xoritasiz kelajak bo‘lmaydi.

Roman syujetida ishtirok etuvchi Beruniyning xotiralari nafaqat o‘tmishni aks ettirish, balki qahramon ruhiyatini ochib berish vazifasini ham bajargan. Muallif retrospektivlik orqali bizni olimning bolalik chog‘lariga yetaklaydi. Xotiralar silsilasi kitobxonni qahramonning bolaligi, ustozi va uning olimga bergan saboqlari, sahro ufqlarida ko‘ringan onasining siymosi va Rayhonabonuning mayus ko‘zlari bilan tanishtiradi. Yozuvchi asarda Beruniyning faqatgina yoqimli xotiralarini emas, balki uning qayg‘uli o‘tmishini ham ustalik bilan tasvirlaydi. Xotira chiroqlari lip-lip yonib u o‘zi tug‘ilib o‘sgan yeri Qiyotning olov iskanjasida yonganini, ilk muhabbatini o‘z qo‘llari bilan tuproqqa qo‘yganini, Abu

Ali ibn Sino bilan so‘nggi uchrashuvini, otasidek aziz ustoz Sulton Mahmud saroyida o‘zining ko‘z oldida dorga osilganini eslab azoblanadi.

Muallif olimning murakkab o‘tmishini shu qadar mahorat bilan tasvirlaydiki, uni o‘qigan odam Beruniyning mashaqqatli taqdir egasi ekanini anglaydi.

Beruniy zah bosgan qorang‘u devorlar orasida o‘tirib, Hindistonning jazirama quyoshi va betakror tabiatini o‘ylaydi. U umrining 10 yilini Hindistonda o‘tkazib uning tabiatini, qushlarini, urf-odatlarini o‘rganadi. Ganga va Hind daryosi bo‘ylaridagi yashilliklarni eslab endi ko‘ngli ko‘tarilgan paytida birdan uning hayoliga Sulton Mahmudning Hindistonda qilgan qatl-u qirg‘inlari yodiga tushib ko‘ngli yana mahzun tortadi. Muallif Sulton Mahmudning Hindistonda qilgan vayronagarchiliklarini tasvirlar ekan urush nafqat insonlarga, balki tirik tabiatga ham katta aziyat yetkazishini ko‘rsatib beradi.

Xulosa o‘rnida aytish mumkinki, Odil Yoqubovning “Ko‘hna dunyo” asaridagi retrospektiva hodisasi shunchaki o‘tmishga qaytish emas, balki moziy voqealari haqida o‘quvchilarga muhim ma‘lumotlar berish vazifasini ham bajargan. Asardagi mazkur usul o‘quvchini tarixga qiziqtirib, uni chuqurroq o‘rganishga undaydi. Zero, taniqli adibning hayot yo‘li barchaga ibrat bo‘lganidek, uning har bir asarlari tarbiyaviy xarakterga ega ekanligi bilan ahamiyatlidir. Ijodkor ijodini chuqur o‘rganish bizning vazifamizdir.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Yoqubov O. Ko‘hna dunyo (tarixiy roman). – T.: Zukko kitobxon, 2021. – B. 480.
2. Саъдуллаева М. Бадий маҳорат мезонлари // Ўзбек тили ва адабиёти, 2022. № 6. – Б. 78-81.
3. Kattabekov A. Tarixdan saboq olib // O‘zbekiston adabiyoti va san’ati, 1997.
4. Latipova S. Tarixiy romanda darvesh obrazi (Yozuvchi Jo‘ra Fozilning “Ayriliq ostonasi” romani asosida). // THEORETICAL ASPECTS IN THE FORMATION OF PEDAGOGICAL SCIENCES International scientific-online conference. – 2024. T. 3, Выпуск 1, сс. 58-61.
5. Latipova S. Image of the Ambassador in the Creation of Jora Fazil // Journal of intellectual property and human rights, vol.3, no. 4, april, 2024. – B. 131-135.
6. Муродов Г. Тарихий романнинг муштараклик ва ўзига хосликлар уйғунлиги муаммолари. Филол... фан... доктори (DSc) дисс... автореферати. – Тошкент, 2018. – 80 б.
7. Носиров А. Тарихий ҳақиқат ва унинг бадий талқини (“Юлдузли тунлар” романи мисолида). Филол... фан... номзоди дисс. – Тошкент, 1999. – 127 б.